



## DAVLAT BYUDJETI XARAJATLARI SIYOSATINING ZAMONAVIY KONSEPTUAL ASOSLARI

Davlatov Muradbek Saparboevich

*Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

### ARTICLE INFORMATION

Volume: 2

Issue: 1

DOI:[https://doi.org/10.55439/INS/vol1\\_iss12/241](https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss12/241)

### ABSTRACT

Davlat byudjeti xarajatlari siyosati mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'yynaydi. U markazlashgan mablag'larni taqsimlash va ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini aks ettiruvchi asosiy moliyaviy vosita hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti xarajatlari siyosatining zamonaviy konseptual asoslari va rivojlanish yo'nashlari tahlil qilinadi. Tahlillar fiskal intizom, makroiqtisodiy barqarorlik hamda davlat xarajatlarining samaradorligini ta'minlash muhimligini ko'rsatadi. Shuningdek, byudjet xarajatlarining milliy rivojlanish strategiyalar bilan uyg'unligi, ijtimoiy sohaga investitsiyalar, mintaqaviy iqtisodiy barqarorlik va ekologik ustuvorliklarga qaratilganligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari davlat byudjeti xarajatlari strategik boshqarish, shaffoflik va hisobdarlikni oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

### KEYWORDS

*mahalliy byudjetlar, biriktirilgan daromadlar, tartibga soluvchi daromadlar, daromadlarni diversifikasiyalash, ijtimoiy soha xarajatlari.*

### Kirish (Introduction/Введение)

Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda davlat byudjeti xarajatlari markaziy ahamiyat kasb etadi. Chunki davlat byudjeti milliy daromadni taqsimlanishi natijasidagi yirik markazlashtirilgan pul fondlarini o'zida mujassamlashtir, ushbu fond daromadlari hisobiga amalga oshiriladigan xarajatlar yahlit jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Davlat byudjeti xarajatlari orqali davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi islohotlari konseptual asoslariغا baho berish mumkin. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi islohotlarning zamonaviy bosqichlarida davlat xarajatlari siyosatining konseptual asoslari va zamonaviy yo'nashlari bo'yicha tahlillar tizimlashtirilgan.

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review, Анализ литературы)

Mahalliy byudjetlar xarajatlari aosoan davlat xarajatlarining elementi sifatida bir qator iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Xususan, Richard Musgrave [1], moliya nazariyasida davlatning ucta asosiy funksiyasini – taqsimot, resurslarni ajratish va stabilizatsiyani – ajratib ko'rsatadi. Uning yondashuvi davlat byudjeti xarajatlarini belgilashda ilmiy asos sifatida keng qo'llaniladi. James M. Buchanan va Gordon Tullocklar [2] siyosiy qarorlar va byudjet xarajatlari qabul qilish jarayonida shaxsiy manfaatlar, kollektiv qarorlar va siyosiy o'zaro ta'sirlarga urg'u beradi. Ushbu nazariy qaragshlari asosida ular Ommaviy tanlovlari (public choice) nazariyasiga asos solishgan. Charles E. Lindblom [3] byudjet shakllantirish jarayonida inkrementalizm nazariyinasini ilgari suradi. Unga ko'ra, murakkab byudjet muammolarini radikal yechimlar o'rniqa, asta-sekin, bosqichma-bosqich pragmatik tarzda hal etish odatiy hol ekanligini ilgari surgan. Aaron Wildavsky [4,5] byudjet jarayonining siyosiy va tashkilot doirasidagi tomonlarini chuqur tahlil qiladi. Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarni rejalashtirish va boshqarish jarayonida qarorlar qabul qilish mexanizmlarini hamda ularning nazariy asoslarini tadqiq qilishga o'z hissasini qo'shgan. Christopher Hood [6] davlat moliyasinini boshqarishning yangi nazariy yo'nalishida ilmiy ilanishlari olib borib, davlat boshqaruvi va byudjet jarayonlarini modernizatsiya qilish masalalariga e'tibor qaratadi. Uning ishlariida samaradorlik, hisobdarlik va raqobatbardoshlik tushunchalari muhim o'rin tutadi. Ushbu

muanflarning yondashuvlari davlat byudjeti xarajatlarini shakllantirish, ularni tartibga solish va siyosiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda asosiy nazariy asoslarini tizimlashtirishgan.

Shuningdek, mamlakatimizda ham ushbu mavzuga oid turli ilmiy maqolalar va tadqiqotlar chop etilmoqda, ular orasida davlat moliyasi, byudjet jarayonlari va xarajatlarining optimallashtirish masalalari bo'yicha tahliliy ishlar uchrab turadi.

### Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Ushbu ilmiy maqola doirasida olib borilgan tadqiqotlarni ilmiy bilishning ilmiy abstraksiyalash usulidan foydalanilgan. Empirik tadqiqot usullaridan statistik kuzatish, taqoslash, tahlil va sintez usullaridan foydalanilgan.

### Tahlillar (Analysis/ Анализ).

Ma'lumki davlat byudjeti xarajatlari, davlatning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarining asosiy moliyaviy manbaini o'zida mujassamlashtirdi. garchi davlat byudjeti daromadlari davlat byudjeti xarajatlarini tasdiqlangan smeta asosida to'liq va o'z vaqtida moliyalshtirishning asosiy moldiyaviy manbai hisoblanسا، davlat byudjeti xarajatlari orqali davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi isldohotlarining real ifodasini o'zida mujassamlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasida byudjet xarajatlari siyosati mamlakatning iqtisodiy o'sishi, ijtimoiy barqarorlik va aholi farovonligini ta'minlash maqsadida shakllantiriladi. Byudjet xarajatlari siyosati bir qator konseptual asoslarga ega bo'lib, unda avvalo makroiqtisodiy barqarorlik va moliyaviy intizom ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat xarajatlari ichki yalpi mahsulot (YalM) va byudjet daromadlari bilan mutanosib ravishda rejalashtirilib, fiskal balansni ta'minlashda davlat qarzining miqdori va xarajatlar samaradorligi nazorat qilinishiga yo'naltiriladi. Shuningdek, monetar indikatorlar hisoblangan inflyasiyaning oldini olish va moliyaviy barqarorlikni saqlash maqsadida xarajatlar maqsadli yo'naltirish xarajatlar orqali davlat moliyasinini barqarorligining asosini tashkil qiladi. Byudjet mablag'lariidan foydalanishda samaradorlikni oshirish uchun xar xarajat natijadorlikka asoslangan holda rejalashtirish tizimi davlat moliyaviy barqarorligining omilidir. Zumonaviy sharoitlarda davlat byudjetining xarajatlari tarkibidagi ijtimoiy soha xarajatlari kambag'allikni kamaytirish, aholi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga

yo'naltirilmoqda. Shuningdek, davlat byudjeti xarajatlarini boshqarish siyosatida milliy iqtisodiyotni strategik rivojlanish va innovasion iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash masalasi muhi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitlarda davlat byudjeti xarajatlari milliy rivojlanish strategiyalar, xususan, O'zbekistonning 2030 yilgacha rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilmoqda. Shuningdek, davlat byudjeti xarajatlari sifatida hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida davlat xarajatlari mintaqaviy ehtiyojlarga qarab taqsimlanish tizimiga asoslanadi. Keyingi yillarda davlat byudjeti xarajatlari siyosatida ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotni rivojlantrishning pirovard maqsadlari o'z mujassamligini topmoqda. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ekologik barqarorlikni ta'minlash va "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantrishga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirish masalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

1-jadval

Davlat byudjeti jami xarajatlari funksional vazifa bo'yicha tarkibi <sup>1</sup> , jamiga nisbatan foizda						
Xarajat turlari/yillar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Ijtimoiy xarajatlari	52,8	53,6	51,5	48,8	49,7	48,8
Iqtisodiyot xarajatlari	10,4	15,6	11,6	11,2	14,4	15,3
Investisiya xarajatlari moliyalashtirish	6,6	5,9	13,1	15,8	11,7	10,5
Davlat boshqaruvi, adliva va prokuratora organlari saqlash xarajatlari	3,5	4,2	5,2	4,5	4,8	5,2
Boshqa xarajatlari	26,7	20,7	18,6	19,7	19,4	20,2

Yuqorida keltirilgan jadvalda davlat byudjeti xarajatlarining (maqsadli jamg'armalarsiz) turli funksional vazifalar bo'yicha tarkibi va dinamikasi aks ettiligan. Shuningdek, ularning jami xarajatlardan ulushi yillar bo'yicha taqqoslab ko'rsatilgan. Iqtisodiy soha xarajatlarining ulushi jami xarajatlarga nisbatan past bo'lsa-da, ular yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Bu xarajatlar asosan iqtisodiy infratuzilma, ishlab chiqarish salohiyati va tadbirkorlikni rivojlantrishga yo'naltirilgan bo'lib, iqtisodiy o'sishni rag'baltantrish da muhim moliyaviy omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Davlat byudjeti xarajatlarining eng yirik qismi ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan. Tahlil etilayotgan davrda ijtimoiy xarajatlar jami byudjet xarajatlarining 48,8-53,6% ulushini tashkil qilmoqda.


Bu aholi farovonligi va inson kapitalini rivojlantrishga qaratilgan dasturlarning ustuvorligini ko'rsatadi. Ijtimoiy xarajatlarga ta'lif, sog'liqi saqlash, pensiya va ijtimoiy nafaqalar, shuningdek, aholini qo'llab-quvvatlashga doir tashabbuslar kiradi.

Yirik investisiyaviy, infratuzilmaviy va tarmoq loyihaligiga ajratiladigan xarajatlar yillar davomida barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lib kelgan. Bunday xarajatlar mamlakat iqtisodiyotini modernizasiya qilish, infratuzilmani yaxshilash va sohalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Diagramma tahlili shuni ko'rsatadi, davlat byudjeti xarajatlarining asosiy qismi ijtimoiy sohaga, ya'nih aholi farovonligi va inson kapitalini rivojlantrishga qaratilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy sohaga ajratiladigan xarajatlar nisbatan past ulushga ega bo'lsa-da, bu yo'nalishdagi xarajatlari oshirish va infratuzilmaviy loyihalarni kuchaytirish orqali mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash imkoniyatini mavjud.

Bundan tashqari, davlat xavfsizligi, huquq-tartibot va mudofaa xarajatlari, shuningdek, davlat boshqaruvi xarajatlarida kuzatilayotgan barqaror o'sish davlat boshqaruvi tizimida islohotlar izchil davom etayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, davlat byudjeti xarajatlarining asosiy yo'nalishlari aholi farovonligi va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, iqtisodiy soha xarajatlarining bosqichma-bosqich oshirilishi kelgusi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlarini yanada mustahkamlashda muhim rol o'ynashi mumkin.


1-rasm. Jami davlat byudjeti xarajatlari byudjet tizimi byudjetlarining ulushi<sup>2</sup>, foizda

1-rasmga muvofiq davlat byudjeti jami xarajatlarida Respublikaliga byudjetining ulushi 2018 yilda 55,6 foizni va mahalliy byudjetlar xarajatlarining ulushi 44,4 foizni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha keskin o'zgarishlar davrini ko'rib o'tadijan bo'lsak, 2020 yilda 67,2 foiz ulush bilan respublika byudjeti xarajatlarida yuqori ulush kuzatilgan. 2023 yilga kelib esa respublika byudjeti xarajatlari jami byudjet xarajatlarida 63,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, mahalliy byudjetlar

xarajatlari 36,2 foizni tashkil qilmoqda. 2018-2022 yillarda davomida Respublika byudjetining xarajatlari o'sish trendini namoyon etgan.

Bu esa markazlashgan loyihalalar, strategik dasturlar va maxsus fondlar orqali amalga oshirilayotgan xarajatlarning kengayishi bilan bog'liq. Markazlashgan mablag'lar orqali iqtisodiyot, ijtimoiy sohalar hamda infratuzilmani rivojlantrish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Respublika byudjeti xarajatlarining yuqori ulushi o'z navbatida amalga oshirilayotgan strategik tavsifdagi islohotlarda davlat byudjetining ahamiyatini ortib borayotganligidan dalolat beradi. Xususan, bunda milliy iqtisodiyotni moliyalashtirish va markazlashtirilgan investisiyalarni moliyalashtirishda davlat byudjeti xarajatlarining o'sib borishi kuzatilgan. Natijada, bиргина 2020 yilda 2019 yilga nisbatan 121,6 foizga o'sgan davlat byudjeti xarajatlarining o'sishida Respublika byudjeti xarajatlarining yillik 145,7 foizlik o'sishi ta'sir etgan.

2-rasm. Jami davlat byudjeti xarajatlarida (maqsadli jamg'armalarsiz) Respublika va mahalliy byudjetlar xarajatlarining ulushi (transfertlarsiz), jamiga nisbatan foizda<sup>3</sup>.

Markazlashgan xarajatlar yirik investisiya loyihalarini amalga oshirish, mamlakat infratuzilmasini rivojlantrish va umummilliy strategik vazifalarni bajarish imkoniyatlarini kuchaytirib borayotganini ko'rsatadi.

Davlat byudjeti siyosatini yanada balanslashtirish, mahalliy iqtisodiy salohiyatni mustahkamlash va hududlarning ehtiyojlarini hisobga olib, xarajatlarining samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval

Hududlar/yillar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2022 yilda 2018 yilga nisbatan o'sish, %da
Qorqalp'iston Respublikasi	1740	3897,9	3542	2915,6	3874,2	222,7	
Azjon	2162,1	4510,4	3708	3228,8	4741,6	219,3	
Buxoro	1458,4	3107,5	3103,5	2375,4	3347,3	229,5	
Jizzax	1153,8	2534,6	2057,7	1702,9	2551,8	221,2	
Qashqadaryo	2223,5	4415,2	4603,2	4147,6	5534,2	248,9	
Navoiy	999,2	2280,3	1818,2	1535,8	2186,3	218,8	
Namangan	1953,7	3921,5	3776,9	3254,5	4607,9	235,9	
Samarcand	2629,9	5147,3	3811,6	3759,7	4963,7	188,7	
Surxondaryo	1879,9	3721,2	3246,6	3048,3	4453,9	236,9	
Sirdaryo	806,3	1725,4	2375,6	1279,9	1777,7	220,5	
Tashkent	2066,8	4225,8	3387	3009,8	4378,9	211,9	
Farg'on'a	2621,3	4962,7	4132,1	3815,1	5619,9	214,4	
Xorazm	1411,7	2727,6	2278,9	2075,6	3067,2	217,3	
Toshkent shahri	2378,9	4976,5	5350	4068,6	6044,6	254,1	
Jami	25485,5	52154	47190,75	40217,5	57149,2	224,2	

Jadvalda hududlar bo'yicha mahalliy byudjet xarajatlarining 2018-2022 yillarda qanday o'zgargani, shuningdek, 2022 yilda 2018 yilga nisbatan ularning o'sish sur'ati aks etgan. Tahlil shuni ko'rsatadi, mahalliy byudjet xarajatlari keskin ortib, har bir hududda o'sish sur'ati turlicha bo'lgan. Quyidagi muhim tendensiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Jami mahalliy byudjet xarajatlari 2018 yilda 25,485,5 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2022 yilda bu raqam 57,149,2 mlrd. so'mga yetgan. Bu esa 224,2% o'sishni anglatadi. Bunday o'sish mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash, soliq tushumlari ko'payishi, infratuzilma va sanoat loyihalarining amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Har bir hududda mahalliy byudjet xarajatlarining o'sish sur'ati har xil bo'lgan. Masalan: Qoraqalp'iston Respublikasida xarajatlari 222,7% ga o'sgan. Toshkent shahri eng yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lib, 254,1% ni tashkil etgan. Bu poytaxtda yirik biznes tuzilmalari, xizmat ko'rsatish va innovasion sohalarining rivojlanishi bilan izohlanadi. Qashqadaryo viloyati 248,9% o'sish sur'ati bilan yuqori ko'rsatkich qayd etgan. Bu hududda sanoat va qishloq xo'jaligi sohasidagi yangi loyihalarni sezilarli darajada ahamiyat kasb etgan bo'lishi mumkin. Boshqa viloyatlarda ham o'sish 188,7% (Samarcand) dan 236,9% (Surxondaryo) gacha o'zgarib, hududlarning iqtisodiy imkoniyatlari va mahalliy byudjet siyosatining o'ziga xosligi bilan bog'liq ekanligi ko'rindi.

Hududlarda byudjet xarajatlari ortib borayotgani mahalliy moliyaviy barqarorlikni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Buning uchun quyidagi choralar muhim hisoblanadi:

Soliq bazasini kengaytirish va diversifikasiyalash – mahalliy byudjetlar daromad manbalarini ko'paytirish muhim.

Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni optimallashtirish – xarajatlar samarali yo'naltirish zarur.

Mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash – biznes muhitini yaxshilash mahalliy daromadlarning oshishiga sabab bo'ladi.

Ijtimoiy dasturlarni hudud ehtiyojlariiga mos ravishda shakllantirish – har bir hududning xususiyatlарини inobatga olish kerak.

Transferlar va moliyaviy tartibga soluvchi mechanizmlarni qayta ko'rib chiqish – mahalliy byudjetlarni mustahkamlash strategiyasi ishlab chiqilishi lozim.

Natijada, mahalliy byudjetlarni samarali boshqarish mamlakat iqtisodiy o'sishiga, aholi farovonligi va ijtimoiy adolatga xizmat qiladi.

Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения)

Davlat byudjeti xarajatlari siyosati bir qatori konsepsiya va prinsiplarga asoslanadi. Ushbu maqola sungidan xulosa qilish mumkinki, davlat byudjetining xarajatlari birinchi darajada, makroiqtisodiy barqarorlik va moliyaviy intizom ta'minlash, Samaradorlik va natijaviylik prinsiplariga asoslanishi zarur. Davlat byudjeti xarajatlaridagi yuqori ijtimoiy soha xarajatlari uning ijtimoiy yo'naltirilganlik tamoyiliga asoslanganligidan dalolat beradi. Davlat byudjeti xarajatlari strategik rivojlanish va innovasion iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilib, bu jami davlat byudjeti xarajatlaridagi Respublika byudjetining yuqori

ulushi bilan ham izoqlanadi. Keyingi yillardagi davlat byudjeti xarajatlarining o'ziga xos xususiyati va milliy xo'jalik tizimidagi zamонави аhamияти uning ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog'liq yirik hajmdagi xarajatlarni moliyalashtirilayotganligi bilan izoqlanadi.

Mahalliy byudjet xarajatlarining o'sishi davlat siyosatidagi desentralizasiya jarayonlarining samaradorligini aks ettiradi. Biroq har bir hududning iqtisodiy salohiyati, resurslari va strategik maqsadlarini hisobga olgan holda byudjetni boshqarish muhim. Bu esa infratuzilmani rivojlantirish, mahalliy bozor talablarini qondirish va yangi ish o'rinnari yaratish kabi yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekistonda byudjet xarajatlari siyosati strategik maqsadlarga muvofiq ravishda shakllantirilgan bo'lib, ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik va samaradorlik prinsiplariga asoslangan. Shu bilan birga, byudjet mablag'laridan foydalanishda shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi.

## References:

1. Musgrave, R. A. (1959). The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. New York: McGraw-Hill.
2. Buchanan, J. M., & Tullock, G. (1962). The Calculus of Consent: Logical Foundations of Constitutional Democracy: University of Michigan Press.
3. Lindblom, C. E. (1959). The Science of "Muddling Through". *Public Administration Review*, 19(2), 79–88. [DOI: 10.2307/976933]
4. Wildavsky, A. (1964). Budgeting: A Comparative Theory of Budgetary Processes. New York: Little, Brown.
5. Wildavsky, A. (1979). The Politics of the Budgetary Process. Boston: Little, Brown.
6. Hood, C. (1991). A Public Management for All Seasons? *Public Administration*, 69(1), 3–19. [DOI: 10.2307/3087964]